



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**  
**MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

100011, Toshkent sh., Navoiy ko‘chasi, 4, tel.: (998 71) 241-08-95, 241-68-95,  
www.ssv.uz, e-mail: info@ssv.uz, ssv@exat.uz

2024 yil “8”yanvar

03-38/314-son

**Surxondaryo viloyati sog‘liqni saqlash  
boshqarmasi,**

**Tibbiyot oliy ta’lim muassasalari,  
Tibbiyot xodimlarining kasbiy  
malakasini rivojlantirish markazi,**

**Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-  
amaliy tibbiyot markazlari, Respublika  
shoshilinch tibbiy yordam ilmiy-markazi  
va uning hududiy filiallari rahbarlariga**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil  
16-17-noyabr kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi davomida  
berilgan topshiriqlar bo‘yicha 44-sonli Bayon ijrosini ta’minlash yuzasidan**

**TOPSHIRIQ XATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yordamchisining 2023-yil  
12-dekabrda 03-RA 1-17964-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh  
Vazirining 2023-yil 14-dekabrda 20/13233-sonli topshiriqlariga muvofiq  
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 16-17-noyabr  
kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar bo‘yicha  
44-sonli Bayoni **ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.**

Bunda, mazkur bayonning 100-bandi “barcha tibbiyot oliy ta’lim  
muassasalari, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari va  
Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazining magistratura  
va klinik ordinatura mutaxassisliklarining bitiruvchi kurs talabalariga o‘z  
yo‘nalishidagi mutaxassislik bo‘yicha mavjud vakant o‘rinlarda mehnat  
shartnomasi asosida to‘liq stavkagacha Surxondaryo viloyati tibbiyot  
muassasalarida faoliyat ko‘rsatishlariga ruxsat berish;

Surxondaryo viloyatidagi tibbiyot muassasalarda mavjud vakant o‘rinlarni  
to‘ldirish maqsadida, 2023-2024 o‘quv yilida klinik ordinatura va magistratura  
qabul sinovlarida muvaffaqiyatsiz ishtirok etgan nomzodlar orasidan Surxondaryo  
viloyatida ishlash istagini bildirganlarni qo‘shimcha qabul doirasida o‘qishga  
qabul qilish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin” ni ijrosini ta’minlash **shaxsan  
muassasa rahbari zimmasiga yuklatilsin.**

2. Surxondaryo viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi, Tibbiyot oliy ta’lim  
muassasalari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi,

Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy-markazi va uning hududiy filiallari rahbarlari

- Doimiy yashash joyi Surxondaryo viloyatida bo'lgan, Surxondaryo viloyatida ishlash istagini bildirgan **magistratura va klinik ordinatura mutaxassisliklarining bitiruvchi kurs talabalariga** o'z yo'nalishidagi mutaxassislik bo'yicha mavjud vakant o'rinlarda mehnat shartnomasi asosida to'liq stavkagacha Surxondaryo viloyati tibbiyot muassasalarida **faoliyat ko'rsatishlari ta'minlansin**;
- Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan Sog'liqni saqlash vazirligining 2023-yil 26-iyuldagi 179-sonli buyrug'i bilan mutaxassisliklar kesimida belgilangan qabul kvotasi doirasida **klinik ordinaturaga davogar bo'lgan**, 2023-2024 o'quv yilida klinik ordinatura qabul sinovlarida muvaffaqiyatsiz ishtirok etganlar orasidan Surxondaryo viloyatida ishlash istagini bildirganlarni qo'shimcha qabul doirasida **o'qishga qabul qilinsin**, o'qish jarayoni 2023-yil 10-yanvar sanasidan boshlansin;
- Klinik ordinaturaga shifokorlarni qabul qilish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 18-dekabrda "Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 319-son qarorining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan "Klinik ordinatura to'g'risida" Nizomning «To'plangan ballar reytingi bo'yicha tanlovdan o'tgan (bunda shaxs mumkin bo'lgan eng yuqori ballarning **kamida 30 foizini to'plashi** kerak va o'qish pulini to'lagan (to'lov-kontrakt shakl uchun) shaxslar klinik ordinaturaga qabul qilinish huquqiga egadirlar» deb belgilangan 17-bandiga **amal qilinsin**.

### 3. Surxondaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi rahbari

Surxondaryo viloyatida ishlash istagini bildirgan magistratura va klinik ordinatura mutaxassisliklarining bitiruvchi kurs talabalarini o'z yo'nalishidagi mutaxassislik bo'yicha mavjud vakant o'rinlarda mehnat shartnomasi asosida to'liq stavkaga ishga qabul qilinganlar to'g'risida ma'lumot 2023-yil 1-fevralga qadar kiritilsin.

4. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy-markazi va uning hududiy filiallari rahbarlari

2023-2024 o'quv yilida klinik ordinatura qabul sinovlarida muvaffaqiyatsiz ishtirok etganlar orasidan Surxondaryo viloyatida ishlash istagini bildirganlarni o'qishga qabul qilingani to'g'risida hisobot 2023-yil 15-yanvar sanasiga qadar kiritilsin.

5. Mazkur topshiriq xatining ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Vazir o'rinbosari



F. Sharipov